O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(1-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 410-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

13. Samatova, N. va Subxiddinov, S. (2023). O‘z-o‘zini imidji va shaxsiy o‘zini o‘zi qadrlash muammosi. *Kompyuter fanlari va muhandislik texnologiyalari* , *1* (1), 435-437.

AGRISSIV HATTI – HARAKATLAR VA MAKTABLARDAGI ZO‘RAVONLIK

Samatova Nigora Davlataliyevna,
Abdurasulova Setora Oybek qizi
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali
nsamatova82@gmail.com

Annotatsiya: Agressiya va zo‘ravonlik o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o‘sib borishi va to‘planishi oqibati sifatida zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin. Agressiya inson xarakterida tug‘ma va tabiiy bir element sifatida, xuddi shuningdek, agressiyadan asli uzoq odamning favqulodda vaziyatda o‘z emotsiyalarini tuta bilmasligi, ularni nazorat qila olmasligi oqibatida vujudga kelishi mumkin. Zo‘ravonlik aslida inson xarakterining qusuri, uning kamchiligi hisoblanadi. Maktab bolalari internet orqali o‘zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma’lumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targ‘ib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o‘yinlarni o‘ynash orqali o‘zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo‘lmoqdalar.

Kalit so‘zlar: Agressiya, zo‘ravonlik, konfilikt, konfliktli vaziyatlar, maktab, internet, passiv usul, faol usul, mantiqiy usul.

Kirish. Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar maktab o‘quvchilari orasida soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab bo‘ldi. Maktab bolalarida agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va ko‘pqirrali jarayon bo‘lib, unga ko‘pgina omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Agressiv xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi ta’sirida shakllanishi aniqlangan.

Agressiya va zo‘ravonlik o‘zaro bog‘liq tushunchalar bo‘lib, inson kayfiyatida agressiv holatlarning o‘sib borishi va to‘planishi oqibati sifatida zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin. Lotin tilida agressiya “hujum qilish” ma’nosini anglatadi. Agressiya inson xarakterida tug‘ma va tabiiy bir element sifatida, xuddi shuningdek, agressiyadan asli uzoq odamning favqulodda vaziyatda o‘z emotsiyalarini tuta bilmasligi, ularni nazorat qila olmasligi oqibatida vujudga kelishi mumkin.

Konfliktli vaziyatlarda ko‘pchilik o‘z instinktlari va hissiyotlari asosida o‘zini tutishga o‘rganib qolgan. Bunday holni ko‘pchilik qabul qiladi va aynan mana shu yo‘l to‘g‘ri deb biladi. Shu bois, konfliktli vaziyatda zo‘ravonlik ishlatilsa, birovning hayotiga tahdid solinsa, jismoniy kuch ishlatish qo‘llanilsa, ko‘pchilik, ziddiyat mavjud ekanligini hisobga olgan holda, bu vaziyatlarda “kechirimli bo‘lish” lozimligini, bunday holatning kelib chiqqanligini anglash mumkinligini

ta’kidlashadi. Ammo, har qanday vaziyatda ham birovning hayoti, uning sog‘lig‘iga zo‘ravonlik o‘tkazib bo‘lmasligini unutishadi.

Asosiy qism. Zo‘ravonlik aslida inson xarakterining qusuri, uning kamchiligi hisoblanadi. Odam o‘z hissiyotlari ustidan nazorat o‘tkaza olmasligi, yoki o‘zini tiya bilmasligi uning zo‘ravonlikka ruju qo‘yishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Zo‘ravonlik insonning kuchli ekanligini emas, balki aksincha uning kuchsiz va irodasiz ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, o‘qituvchi o‘z o‘quvchilariga zo‘ravonlik o‘tkazganda, bunday zo‘ravonlik irodasizlik belgisi sifatida baholanishi tabiiydir.

Zo‘ravonlik aslida barcha madaniyatlar, sivilizatsiyalarda qoralanadi. Zo‘ravonlik barcha sharqona kurash turlari, ya’ni dzyu-do, taekvon-do, karate, ushu va boshqalarda ta’qiqlanadi. Mazkur kurash turlarining barchasi hujum qilish usullari emas, balki eng avvalo, o‘zini himoya qilishning jismoniy yo‘llari hisoblanadi. Ularning barchasida inson hayoti aziz ekanligi borasidagi ma’naviy falsafa tarbiyalanadi va o‘qitiladi. O‘zbeklarning milliy kurashida ham o‘zini himoya qilish vositalari va o‘zaro tenglik g‘oyalari tarbiyalanadi. Zo‘ravonlik qo‘llanilganda konfliktning yaratuvchanlik xususiyati emas, balki vayron etish xususiyati faol bo‘ladi. Konfliktning vayron etish xususiyati esa insonni stress, depressiya, o‘zgalardan o‘zini olib qochish, hayotdan bezish, o‘z kuchiga haddan tashqari ishonch, boshqa tarafdan o‘z kuchiga ishonmaslik, doimiy jahldorlik, jizzakilik, tajanglik, besabrlilik, besaromjonlik kabi holatlarga olib keladi.

O‘z agressiyasini yengish usullari. Agressiyani yengish bo‘yicha uch umumiy usul taklif etiladi. Ular: passiv usul, faol usul va mantiqiy usul.

Passiv usul – o‘z kayfiyati, hissiyotlari, o‘zini qiynagan masalalar borasida birovga dardini to‘kib solish, o‘rtoqlashish, suhbat qilishda namoyon bo‘ladi. O‘z hissiyotlariga erk berish, ularninig chiqib ketishiga imkon yaratish qalbdagi agressiv vaziyatning kuchayishini oldini oladi. Bu borada ayollar yig‘lab-siqtab olganlaridan so‘ng, ancha yengillik his qiladilar.

Faol usul– faol usulning barcha turlari faol harakatlar olib borish asosiga qurilgan. Adrenalin – inson kayfiyatidagi tanglik holatining tibbiy asosi bo‘lgan modda – jismoniy mashqlar, harakatlar, mehnat jarayonida yediriladi. Buning oqibatida inson kayfiyatida xushnudlik holati vujudga keladi.

Mantiqiy usul – ratsional, intellektual odamlarning usuli bo‘lib, bu usul juda katta qalb va aql mehnatini talab etadi. O‘z hissiyotlarini boshqara olish qobiliyatini egallagan odamgina mazkur usulni qo‘llay oladi. Bunday odamlar masalaning mohiyatiga urg‘u beradi. Uning mohiyatini tushunish esa muammoning yechimiga olib keladi. Muammoni tushunish asosida uni yechish yo‘llari ochiladi va kelib chiqadi. Shu bois, bunday odamlar har vaqt o‘zlarini agressiyadan ozod qilish hususiyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon inson ichki hissiyotlari borasida olib borilgan analitik tahlilga o‘xshaydi.

Afsuski, bugungi haqiqatlar bolalar orasida maktabdagi zo‘ravonlik nafaqat mavjud, balki faol ravishda kengaymoqda. Bu maktab o‘quvchilarining bir-biriga bo‘lgan jismoniy ta'siri emas, balki axloqiy bosim. Yaqinda qabul qilingan qonunga binoan, talaba psixologik va axloqiy jihatdan yaramaydigan o‘qituvchi ishdan bo‘shatilishi mumkin. Albatta, dalillar dalillar bilan tasdiqlangan bo‘lsa. Ota-

onalarning vazirlikdagi shikoyati, odatda, hech kim qimmatli mutahassisni ishdan bo‘shatmaydi, chunki u boshqa maktabga o‘tishni taklif qilish haqiqati bilan tugaydi.

Maktab bolalarida agressiv xatti-harakat namunalarini quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to‘playdi:

1.Nosog‘lom oila muhiti. Ba’zi oilalarda ota-ona bilan farzand o‘rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikning mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo‘lishi oilaviy muhitning ta’sir darajasiga bog‘liq hisoblanadi.

2.Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida o‘z tengqurlari, sinfdoshlari bilan bo‘lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o‘zlariga singdiradilar. Ko‘pgina hollarda bolalar tengdosh do‘stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o‘zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan tashqari agressiv bolalar esa o‘z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. Bunday bolalar o‘zini xo‘rlangandek his qilib, o‘zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tug‘dirmasdan qolmaydi.

3.Ommaviy axborot vositalari — bugungi kunda bolalarning agressivligini kuchaytirishga ta’sir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilmoqda. Shu o‘rinda oynai jahon orqali namoyish etiláyotgan turli jangari filmlar, ko‘rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga ta’sir qilayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning ta’siri ham o‘ziga xosligi inkor etib bo‘lmas haqiqatdir. Maktab bolalari internet orqali o‘zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan ma’lumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targ‘ib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o‘yinlarni o‘ynash orqali o‘zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo‘lmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I.M.Xakimova. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. (o‘quv qo‘llanma)T. O‘zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi.2013. -143 b
2. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi. Ma’ruzalar matni. 2013.-141 b
3. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy Pedagogika. Darslik//-T.: Fan va texnologiya nashiriyoti, 2013 y.
4. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. -T., O‘zMU «Universitet», 2013
5. Bolalarga o‘smirlarga maslahat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G. V. Burmenskoy E. I. Zaxarova O. A Karabonova va boshqalar-M. , , Akademiya, , 2012 - 112s.
6. Dolgova V. I. O‘smirlarning shaxslararo munosabatlarini psixologik-pedagogik tuzatish;ilmiy va uslubiy tavsiyalar-Chelyabinsk;ATOCSO, 2010-112S
7. Samatova, N. (2023). TORTINCHOQLIK VA UNING PSIXOLOGIK SABABLARI. ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.

8. Samatova, N. (2023). O‘zmir qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaning ro‘li. ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.
9. Samatova, N. (2023). Shaxslararo muloqatda uchraydigan qiyinchiliklar. ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR.
10. Samatova, N. (2022). Oiladagi salbiy muloqatning farzand tarbiyasiga ta'siri. Zamonaviy ilmiy va texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali.
11. Davlataliyevna, S. N. (2022). Umumiy psixologoya va turli xil psixologik amaliyotlar. Scientific Impulse, 1(5), 820-822.
12. Davlataliyevna, S. N. (2022). Psychology and its principles. Scientific Impulse, 1(5), 823-826.
13. Саматова, Н., & Абдурасулова, С. (2023). Психологическая связь и межличностный конфликт в педагогическом общении. Информатика и инженерные технологии, 1(1), 433-434.
14. Samatova, N. va Namuratova, M. (2023). Psixologiyada shaxsiy muammosi. Kompyuter fanlari va muhandislik texnologiyalari , 1 (2), 408-413.
15. Hakimova, S. (2023). Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar oniga ta'siri. Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi: muammolari va yechimlari .

ПСИХОЛОГИЯ РОДИТЕЛЬСКИХ ОТНОШЕНИЙ

Юлдашева Сожида Зоировна,
Абдужалилова Сабина Абдурашид кизи,
Мирзаахматов Абдурахмон Хасанбой угли
Джизакский филиал Национального университета Узбекистана

Аннотация: В статье раскрывается основополагающие концепции детско-родительских отношений. Определено решающее влияние фактора взаимодействия родителей с детьми на психическое развитие детей раннего возраста. Проанализированы результаты исследования влияния детско-родительских отношений на коммуникативную деятельность детей. Предложена оригинальная тренинговая программа, направленная на оптимизацию детско-родительских отношений.

Ключевые слова: дети раннего возраста, детско-родительские отношения, родительские установки, типы и стили детско-родительских отношений, общение, тренинг.

Многие могут недооценивать то влияние, которое родители оказывают на психику и характер ребенка, хотя именно социальная среда формирует личность человека уже на ранних этапах его развития. Семья — это основа социальной